# YASHIL IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

1977
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI




## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

*MAQOLALAR TO'PLAMI*

MAXSUS SON
Iyun-iyul

2024








Google Scholar
doi Digital Object Identifier

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Mas'ul muharrir:**
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "OʻIRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Poʻlatov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d., TAQU katta oʻqituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Fargʻona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boʻlimi boshligʻi
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta oʻqituvchisi

Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, OʻzR Tabiat resurslari vazirligi, OʻzR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# “ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI”

***MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI***



# BUXORO VILOYATIDA KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISH VA BANDLIKNI OSHIRISH YO'NALISHIDA HUDUDLAR KESIMIDA MAVJUD IMKONIYATLAR TAHLILI

**Musulmonova Shahlo Nasriddinovna**
Buxoro davlat universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Iqtisodiyotninig bosh muammolaridan biri kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish bizdan doimiy harakatni talab qiladi. Buxoro viloyatida ushbu muammonni hal qilish uchun nazarimizda tumanlar, mahallalar miqyosida ularning o'z potensialidan kelib chiqqan holda turli faoliyat yo'nalishlarini tashkil qilish lozim. Kambag'al aholi muammolari o'rganilib ularning mavjud imkoniyatlariga baho bergan holda bandlikka jalb qilish lozim. Ushbu maqolada aynan, Buxoro viloyatining tumanlari kesimida mavjud imkoniyatlar tahlili keltiriladi.

Kalit so'zlar: kambag'allik,bandlik, tabiiy zaxiralar, potensial imkoniyatlar, drayver soha, aholi farovonligini oshirish.

Abstract: Eliminating poverty and increasing employment is one of the main problems of the economy, which requires constant action from us. In order to solve this problem in the Bukhara region, in our opinion, it is necessary to organize different areas of activity based on their own potential at the scale of districts and neighborhoods. It is necessary to study the problems of the poor population and attract them to employment after assessing their existing opportunities. This article provides an analysis of the opportunities available in the districts of Bukhara region.

Key words: poverty, employment, natural resources, potential opportunities, driving sector, population welfare improvement.

Аннотация: Искоренение бедности и повышение занятости является одной из главных проблем экономики, которая требует от нас постоянных действий. Для решения этой проблемы в Бухарской области, на наш взгляд, необходимо организовать различные направления деятельности в масштабе районов и микрорайонов, исходя из собственного потенциала. Необходимо изучить проблемы бедного населения и привлечь их к трудоустройству после оценки имеющихся у них возможностей. В данной статье представлен анализ возможностей, имеющихся в районах Бухарской области.

Ключевые слова: бедность, занятость, природные ресурсы, потенциальные возможности, движущий сектор, повышение благосостояния населения.

## KIRISH

Bugungi kunda kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish masalalari global miqyosda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, ishsizlik darajasining ortishi va tengsizlikning kuchayishi ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida iqtisodiy qiyinchiliklar yanada keskinlashib, kambag'allik darajasi oshdi, bu esa bandlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni tezlashtirishni talab qiladi.

O'zbekistonda ham kambag'allikni qisqartirish va bandlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kambag'allikni bartaraf etish hamda bandlikni oshirish yo'nalishlari har bir hududda o'ziga xos xususiyatga ega. Bu borada mavjud imkoniyatlar Buxoro viloyati va tumanlar kesimida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ba'zi tumanlarda mavjud salohiyat, ikkinchisida mavjud bo'lmasligi mumkin. Ushbu maqolada mamlakatda kambag'allikni kamaytirish va bandlikni oshirish borasida mavjud imkoniyatlar va ulardan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar va mahalliy sharoitlar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar, shuningdek, ularni amalga oshirishda duch kelinayotgan muammolar ko'rib chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar iqtisodiy va ijtimoiy fanlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy olimlar ushbu mavzuda keng qamrovli tadqiqotlar

o‘tkazib, turli yondashuvlar va usullarni taklif qilishgan. Masalan, J. Sachs o‘zining “The End of Poverty” kitobida kambag‘allikni bartaraf etish bo‘yicha global strategiyalarni taqdim etadi va iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish orqali kambag‘allikni qisqartirish yo‘llarini ko‘rib chiqadi[1]. Sachsning fikriga ko‘ra, bandlikni oshirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish kambag‘allikni kamaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, M. Todaro va S. Smith “Economic Development” kitobida iqtisodiy o‘sish va rivojlanish jarayonlarining bandlik va kambag‘allik darajasiga ta’sirini tahlil qilganlar[2].

O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu masalada o‘z tadqiqotlarini olib borishgan. U. Axmedov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari o‘rganilgan[3]. Axmedovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bandlikni oshirish va kambag‘allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, T. Abduraxmanov o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda bandlik darajasini oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan[4].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va o‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari kambag‘allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish borasida turli yondashuvlar va amaliy tajribalarni taqdim etadi. Ushbu ilmiy ishlar mamlakatlar uchun strategik qarorlar qabul qilishda muhim manba hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Kambag‘allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish usullarini o‘rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalambor Buxoro viloyati iqtisodiyoti qaysi sohalarga ixtisoslashganligini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir (1-rasm):




1-rasm. Buxoro viloyati iqtisodiyoti ixtisoslashgan sohalar[5].

1 Sachs, J. D. (2005). "The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time". Penguin Books.
2 Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2015). "Economic Development". Pearson Education
3 Axmedov, U. "O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish bo'yicha islohotlar tahlili". Toshkent Iqtisodiyot Universiteti Nashriyoti.
4 Abduraxmanov, T. (2021). "O'zbekistonda bandlik darajasini oshirishda innovatsion yondashuvlar". O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
5 Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi rasmda Buxoro viloyati itisoslashgan sohalar keltirib o'tilagan. Unga ko'ra sanoatga eng kata ulushni egallovchi soha neft va gaz sanoati, uning sanoatdagi ulushi 43.4% ni tashkil etadi.To'qimachilik va tikuv trikotash sohasi sanoatdagi 21.8 % bilan ikkinchi o'rinda turadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi sanoatda 7.5 % ulushni tashkil qiladi. Chorvachilik qishloq xo'jaligi sohasining 51.3 % ulushini egallaydi. Meva sabzavotchilik chorvachilikdan keying o'rinda turadi, hamda qishloq xo'jaligi sohasida 28.9 % ulushni egallaydi. Xizmat ko'rsatish sohasi yalpi hududiy mahsulotning 27.2 % ulushiga egalik qiladi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat ushbu sohalar viloyatda yetakchi ekanligini, balki shu sohalarda mavjud imkoniyatlar va talab darajasi yuqori ekanligidan ham dalolat beradi.




2-rasm. Buxoro viloyati tumanlari kesimida yer maydonlaridan unumli foydalanish imkoniyatlari[6].

Ushbu rasmda Buxoro viloyati tumanlaridagi unumli foydalanish mumkin bo'lgan, ammo hozida foydalanilmayotgan imkoniyatlar keltirilgan. Unga ko'ra, Peshko' tumani 24 720 ga, Shofirkon tumani 24 900 ga, G'ijduvon tumani 12 000 ga, Vobkent tumani 3 800 ga, Kogon tumani 17 000 ga, Qorovulbozor tumani 15 300 ga, Buxoro tumani 14 980 ga, Olot tumani 14 500 ga, Qorako'l tumani 19 800 ga, Jondor tumani 29 700 ga, Romitan tumani 23 300 ga unumli foydalanish mumkin bo'lgan yer maydonlariga ega. Bu maydonlarning ko'p qismi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash sohalariga yo'naltirilishi bilan bir qatorda,hududlar ichki imkoniyat va talablaridan kelib chiqqan holda sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish shaxobchalari, ko'ngilochar maskanlar barpo etish uchun foydalanilsa bo'ladi

6 www.buxstat.uz ma'lumotlari asosida.

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

1-jadval. Buxoro viloyati kesimida qurilish mollari zaxiralari[7]

| Qurilish moli nomi | zaxira hajmi mln.t | Foydalanish |
|---|---|---|
| Ohaktosh | 12.8 | 65.5% |
| Grafit | 9.2 | - |
| Gips va angidrit | 105.7 | 66.9% |
| Sement homashyosi | 14.5 | - |
| Marmar toshi | 16 | - |
| Shag‘al | 125.6 | 20.3 |
| Qurilish toshi | 88.6 | - |

Ushbu jadvalda Buxoro viloyatida mavjud qurilish mollari zaxiralari keltirilgan. Unga ko‘ra ohaktosh 12.8 mln tonna zaxirasi mavjud bo‘lib 65.5% foydalanilmoqda. Demak 34.5% hali foydalanilmayotgan zaxiralar mavjud. Grafitning 9.2 mln tonna zaxirasi mavjud, Gips va angidridning 105.7 mln tonna zaxirasi mavjud va 66.9% i foydalanishda. Sement xomashyosining 14.5 mln tonna, qurilish toshining 88.6 mln $m^3$ zaxirasi mavjud. Marmar toshining 16 mln m3, shag‘al 125.6 mln m3 zaxirasi mavjud va uning atigi 20.3% igina foydalanilmoqda. Demak hali 79.7% zaxiradan unumli foydalinish imkoni mavjud. Xulosa qilib aytish mumkinki,demak qurilish mollari zaxiralaridan unumli foydalanish orqali ushbu sohada nafaqat iqtisodiy o‘sish balki, ko‘proq aholini band qilish imkoniyati mavjud ekan.

Quyida pastdagi jadvalda Buxoro viloyati tumanlari kesimida iqtisodiyotdagi drayver sohalar va qaysi sohalarda potensial mavjudligi keltirib o‘tilgan.Masalan, Kogon tumanida:

1. Sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish.2. Turizm sohasini rivojlantirish.3. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish.

Sohalarida potensial va albattaki rivojlantirish uchun talab ham  mavjud. Shuni hisobga olgan holda aynan shu sohalarga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil qilish, mavjudlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Buxoro shahrida:

1. Turizm sohasini rivojlantirish.
2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.
3. Hunarmandchilik ( zargarlik, minaturachi rassom, pichoqsozlik, qo‘lda gilam to‘qish).
4. Ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi.
5. Qishloq xo‘jaligi.

G‘ijduvon tumanida:

1. Agro logistika markazini tashkil etish.
2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.
3. Charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish.
4. Ziyorat turizmi (“Abduxoliq G‘ijduvoniy -yetti pir”).
5. Qurilish materiallari ishlab chiqarish.

7 www.buxstat.uz ma’lumotlari asosida

2-jadval. Buxoro viloyati iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi drayver sohalar to‘g‘risida ma’lumot[8].

| Hudud nomi | Ixtisoslashuvi | Hudud nomi | Ixtisoslashuvi |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | 1. Turizm<br>2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>2. Issiqxona xo‘jaliklari.<br>3. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish. | Kogon tuman | 1. Qurilish materiallari ishlab chiqarish.<br>2. Issiqxona xo‘jaliklarini tashkil esish.<br>3. Parrandachilikni rivojlantirish.<br>4. Ziyorat turizmi (“Bahouddin Naqshband, kul yetti pir”). |
| **Buxoro shahar** | 1. Turizm sohasini rivojlantirish.<br>2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>3. Hunarmandchilik ( zargarlik, minaturachi rassom, pichoqsozlik, qo‘lda gilam to‘қish).<br>4. Ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi.<br>5. Qishloq xo‘jaligi. | Qorako‘l tuman | 1. Chorvachilik (go‘sht, sut, teri va junni qayta ishlash).<br>2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>3. Issiqxonalar faoliyatini tashkil etish. |
| **Kogon shahar** | 1. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish.<br>2. Turizm sohasini rivojlantirish.<br>3. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish. | Peshko‘ tuman | 1. Qurilish klasterini tashkil etish.<br>2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>3. Issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish.<br>4. Chorvachilik.<br>5. Qurilish materiallari ishlab chiqarish. |
| **Olot tuman** | 1. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>2. Baliqchilik klasteri.<br>3. Zamonaviy transport logistika markazi.<br>4. Chorvachilik (go‘sht, sut, teri va junni qayta ishlash).<br>5. Issiqxonalar faoliyatini tashkil etish. | Romitan tuman | 1. Anorchilik klasterini tashkil etish.<br>2. Baliqchilik.<br>3. Ziyorat turizmi (“Xo‘ja Ali Romitaniy, Muҳammad Samosiy – yetti pir”).<br>4. Issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish.<br>5. Intensiv uzumzorlar tashkil etish.<br>6. Intevsiv bog‘lar tashkil etish.<br>7. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tashkil etish |
| **Buxoro tuman** | 1. Meva-sabzavotni qayta ishlash.<br>2. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish.<br>3. Uzumchilik (Vino tayyorlash sanoatini tashkil etish).<br>4. Issiqxonalar faoliyatini tashkil etish.<br>5. Qorako‘l teri yetishtirish. | Shofirkon tuman | 1. Parrandachilik klaterlari.<br>2. Ziyorat turizmi (“Revgariy – yetti pir”).<br>3. Intensiv bog‘dorchilikni tashkil etish.<br>4. Meva va sabzavotni yetishtirish, saqlash va qayta ishlash klasterini tashkil etish .<br>5.Issiqxonalar faoliyatini tashkil etish.<br>6. Donni qayta ishlashni tashkil etish. |
| **Vobkent tuman** | 1. Paxtachilik klasterlari .<br>2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>3. Meva-sabzavotni qayta ishlash.<br>4. Bog‘dorchilik.<br>5. Ziyorat turizmi | Qoravulbozor tuman | 1. Qurilish materiallari (stement, qurilish toshi, gips, ohak).<br>2. Baliqchlik hamda ekoturizm.<br>3. Issiqxonalar faoliyatini tashkil etish. |
| **G‘ijduvon tuman** | 1. Agro logistika markazini tashkil etish.<br>2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>3. Charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish.<br>3. Ziyorat turizmi (“Abduxoliq G‘ijduvoniy – yetti pir”).<br>4. Qurilish materiallari ishlab chiqarish.<br>5. Meva va sabzavotni qayta ishlash.<br>6. Ko‘p qavatli uy - joylar qurilishi. | Jondor tuman | 1. Issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish.<br>2. Parrandachilik klasterini tashkil etish.<br>4. Asalarichilikni rivojlantirish.<br>5. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati.<br>6. Terini qayta ishlash.<br>7. Meva va sabzavotchilikni klaster usulda rivojlantirish. |

Vobkent tumani
1. Paxtachilik klasterlari;
2. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati;
3. Meva-sabzavotni qayta ishlash;
4. Bog‘dorchilik;
5. Ziyorat turizmi.

Xuddi shunday boshqa tumanlarda ham bir biridan farq qiluvchi sohalarda rivojlanish imkoniyati mavjud ekanligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.Eng asosiysi tumanlarda mavjud yuqoridagi xususiyatlar va imkoniyatlarga ko‘ra,ularda yangi ish o‘rinlar yaratilsagina,ularning istiqboli kafolatlangan bo‘ladi.

8 O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Buxoroning bugungi rivoji ma'qulmi, degan savolga mening javobim: yo'q. Boshqa viloyatlardagi rivojlanishdan 10 yil orqada qolyapti. Korrupsiya, poraxo'rlik barham topmayapti. Yalpi hududiy mahsulotda qishloq xo'jaligi ulushi 50 foiz ekani eski zamondan nishon. Sanoat, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik bo'yicha viloyatning imkoniyatlari juda keng. Tuman hokimlari, sektor rahbarlarining dunyoqarashi o'zgarishi kerak",[9] – deya ta'kidlagan prezident Shavkat Mirziyoyev.

Muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridaek, viloyatimizda joylardagi muammo va imkoniyatlarni mahalla darajasida o'rganish, aholi bandligi va daromadini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi ish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq. Barcha sohalarda mavjud rezervlarni to'liq ishga solib, qo'shimcha iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Aholi uchun birlamchi oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli bo'lishini ta'minlash, narx oshishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning oldini olish lozim. Sanoat sohasida ham qo'shimcha rezervlar mavjud. Ayniqsa, iqtisodiyotda ustuvor yo'nalish bo'lgan kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal sohalarida "sanoat zanjirlarini"ni uzaytirish kerak. Xizmatlar sohasida ham ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Hududlarda servis shoxobchalarini ko'paytirish, yangi zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Shahlo M., Aziza T. External Labor Migration and Informal Employment: Situation, Problems and Their Causes //European Journal Of Business Startups And Open Society. – 2023. – T. 3. – №. 12. – С. 45-50
2. Nasriddinovna M. S. SPECIAL DIRECTIONS OF POVERTY REDUCTION IN THE REGIONS //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 3. – С. 847-852.
3. Musulmonova S. Mintaqalarda kamg 'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo 'llari. – 2024.
4. Aziza–student M. S. T. et al. Directions for attracting foreign investments in the agricultural sector in the republic of uzbekistan //science and pedagogy in the modern world: problems and solutions. – 2023. – T. 1. – №. 12. – С. 121-127.
5. Musayeva Z. A. "Проблемы бедности и пути её решения в современном мире" Fast track digital transformation dubai 2021, avgust 2021 g. Dubai, OAE. 6 – 9 betlar.
6. Shahlo M., Aziza T. Poverty as a Socio-Economic Category //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. – 2023. – T. 3. – №. 12. – С. 27-31.


### Internet manbalari


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4797-son qarori. https://lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-son qarori.https://lex.uz.


9 O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida.

# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi ....................4
**Sadoqat Siddiqova**

Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов ....................9
**Юлдашев Норбек Худайназарович**

Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati....................14
**Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev**

Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi ....................19
**Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich**

Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish ....................24
**Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich**

Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами....................30
**Ядгаров Ўктам Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович**

Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices ....................37
**Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli**

The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development ....................44
**Jafarova Khilola Khalimovna**

Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлочного переплетения ....................48
**Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Ҳ.**

Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины ....................53
**Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли**

Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish....................58
**Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna**

Kislorodli birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish
....................66
**Saloydinov Aziz Avazovich**

Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari....................70
**Akramova Obida Qosimovna**

Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта....................77
**Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов**

Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякостю....................85
**Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов**

Туризм: типология и классификация....................95
**Малохат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна**

"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish....................99
**Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi**

Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati....................108
**Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna**

Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari ....................114
**Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich**

Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili....................118
**I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS


Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ....... 127
**Мухамадиева Зарина Баходировна**

Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish ....... 132
**Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li**

Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов ....... 136
**Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович**

Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati....... 141
**Xayitov Sherbek Naimovich**

Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili ....... 148
**Sayidova MaftunaHamroqul qizi**

Production of tomato paste ....... 153
**Ergasheva Muhabbat Komil kizi**

Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions....... 156
**Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna**

O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari ....... 159
**Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna**

Dual ta'limda keys texnologiyasini qo'llash ....... 166
**Sariyev Rustam Bobomuradovich**

Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ....... 169
**Jumayev Bahodir Raxmatullayevich**

Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli ....... 174
**Tursunova F. J., G. R. Bozorov**

Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar) ....... 180
**Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich**

Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari ....... 185
**Kudratov Muhammad Rustamovich**

Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish....... 190
**Amrulloyev Dadaxon Nurmat o'g'li**

Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rni....... 194
**Jafarova Hilola Xalimovna**

Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'pik so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi ....... 198
**Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich**

Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili ....... 207
**Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich**

Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish....... 213
**Amrulloyev Dadaxon Nurmat o'g'li**

Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish ....... 217

Buxoro viloyatida kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish yo'nalishida hududlar kesimida mavjud imkoniyatlar tahlili....... 223
**Musulmonova Shahlo Nasriddinovna**

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

# 2024. Maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.